O'zbekistonda ham so'nggi yillarda investitsiya faoliyatini faollashtirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay institutsional hamda huquqiy muhit yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq siyosatini takomillashtirish, soliq yukini maqbullashtirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish, tarmoq va hududlar kesimida maqsadli preferensiyalarni joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda soliq preferensiyalari investitsiyalarni rag'batlantirishning muhim iqtisodiy vositalaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

Soliq preferensiyalari investorlarning xarajatlarini kamaytirish, investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va eksport hajmini kengaytirish, shuningdek, ustuvor tarmoqlarga kapital oqimini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar investorlar uchun qo'shimcha rag'bat yaratmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, soliq preferensiyalarining investitsiya faolligiga ta'siri har doim ham bir xil darajada namoyon bo'lmaydi. Bu esa ularning samaradorligini baholash, qo'llash mezonlarini takomillashtirish va natijadorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan soliq preferensiyalari tizimi kengayib borayotgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi, maqsadliliigi, shaffofligi va uzoq muddatli natijadorligini chuqur ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarmoq va hududlar kesimida berilayotgan imtiyozlarning investitsiyalar hajmi, sifati, texnologik yo'nalishi va eksport salohiyatiga ta'sirini baholash bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda soliq preferensiyalarining roli, ularning iqtisodiy natijalari va amaldagi tizimni takomillashtirish yo'nalishlari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda soliq preferensiyalari muhim iqtisodiy vosita sifatida e'tirof etiladi. Xususan, ilmiy manbalarda soliq imtiyozlarining investitsion faollikka ta'siri, erkin iqtisodiy zonalardagi preferensiyalarning samaradorligi hamda xorijiy investitsiyalar sifatini oshirishdagi o'rni keng yoritilgan. Shu bois, mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish O'zbekistonda investitsiya siyosatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

OECD tomonidan tayyorlangan Organisation for Economic Co-operation and Development¹ hisobotida O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirish uchun qo'llanilayotgan soliq va soliqsiz imtiyozlar tizimi batafsil tahlil qilingan. Xususan, korporativ daromad solig'i bo'yicha berilayotgan preferensiyalar, ularning investitsion faollikka ta'siri va amaliy samaradorligi alohida ko'rib chiqilgan. Hisobotda qayd etilishicha, soliq imtiyozlari investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi, biroq ularning natijadorligi shaffoflik, maqsadga yo'naltirilganlik va aniq mezonlar asosida qo'llanishiga bevosita bog'liqdir.

PwC tomonidan tayyorlangan "Tax Credits and Incentives in Uzbekistan" mavzusidagi sharhda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun yer solig'i, mol-mulk solig'i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha bir qator imtiyozlar mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, mazkur soliq preferensiyalari investorlarning xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va investitsion loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun berilayotgan bojxona va soliq yengilliklari investitsiya faolligini rag'batlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamatkulova Nadira Makkamovning "Tax Incentives and Their Impact on the Quality of Foreign Investments" nomli maqolasida soliq imtiyozlari xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish bilan birga, ularning sifati, texnologik yo'nalishi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Muallifning fikricha, O'zbekistonda ustuvor tarmoqlar uchun soliq imtiyozlari, QQS bo'yicha yengilliklar va bojxona preferensiyalarining joriy etilishi xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirgan. Xususan, 2016–2023-yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,6 milliard dollardan 3 milliard dollarga yetgan, sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi esa 35 foizdan 52 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, muallif keng ko'lamlı soliq imtiyozlaridan ko'ra, innovatsion, yuqori texnologiyali va ustuvor sohalarga yo'naltirilgan selektiv preferensiyalar samaraliroq ekanligini asoslaydi. Mazkur yondashuv investitsiyalar sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Dilshod Turayevning Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth nomli maqolasida O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi roli tahlil qilingan.

¹ https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en.html



Muallif erkin iqtisodiy zonalarda joriy etilgan soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va infratuzilmaviy qulayliklar xorijiy investorlar uchun muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda ayniqsa Navoiy erkin iqtisodiy zonasi, Angren erkin iqtisodiy zonasi va Jizzax erkin iqtisodiy zonasi misolida investitsiya oqimlari va ishlab chiqarish hajmining ortishi ko'rsatib berilgan.

Shahnoza Karimovaning Free Economic Zones in Uzbekistan: A Strategic Tool for Attracting Foreign Direct Investment mavzusidagi maqolasida erkin iqtisodiy zonalarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi strategik ahamiyati yoritilgan. Muallifning fikricha, erkin iqtisodiy zonalarda amal qilayotgan foyda solig'i, mol-mulk solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha preferensiyalar investorlarning xarajatlarini kamaytiradi hamda uzoq muddatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur tadqiqotlar erkin iqtisodiy zonalar investitsion faollikni oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Rahmonova Sitorabonu Bahodir qizining "Investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlatning roli" nomli ilmiy maqolasida investitsiya faoliyatining mazmuni, uni moliyalashtirish zarurati, investitsiya jarayonining bosqichlari hamda davlat tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari yoritilgan. Muallif investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va davlat kafolatlari muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari, ularning tarkibi va investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Mazkur manba investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlatning o'рни va soliq preferensiyalarining nazariy asoslarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil qilingan manbalar O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda soliq preferensiyalari muhim iqtisodiy vosita ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi imtiyozlarning shaffof, maqsadli va selektiv tarzda qo'llanishi, ayniqsa ustuvor tarmoqlar, erkin iqtisodiy zonalar hamda yuqori texnologiyali yo'nalishlarga yo'naltirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, mavjud ilmiy yondashuvlar mazkur tadqiqotda soliq preferensiyalarining investitsion faollikka ta'sirini chuqurroq tahlil qilish, ularning amaliy natijadorligini baholash va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda qo'llanilayotgan soliq preferensiyalarining amaldagi holati, ularning investitsion faollikka ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligi o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, maxsus iqtisodiy zonalar, IT Park rezidentlari va eksportyorlar uchun joriy etilgan soliq imtiyozlariga oid rasmiy ma'lumotlar, shuningdek, OECD, PwC va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqotda soliq preferensiyalarining investitsiya muhitiga ta'siri tarmoq va yo'nalishlar kesimida baholanib, mavjud amaliyot asosida tegishli xulosa hamda takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda tarmoq kesimida soliq preferensiyalaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, elektrotexnika sanoati korxonalarini uchun 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda daromad solig'i va mol-mulk solig'i stavkalari 50 foizga kamaytirilgan. Mazkur imtiyozlardan hisobot davri yakunida elektrotexnika mahsulotlarini sotishdan olingan daromad umumiy daromadning kamida 80 foizini tashkil etgan xo'jalik yurituvchi subyektlar foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari, 2027-yil 1-yanvargacha elektrotexnika sanoati korxonalarini uchun qo'shilgan qiymat solig'i va mol-mulk solig'i stavkalarining 50 foizga kamaytirilgani ushbu sohada ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, investitsion faollikni oshirish hamda mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiya va eksport faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari bosqichma-bosqich xalqaro savdo qoidalariga moslashtirilmoqda. Xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab World Trade Organizationning subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi kelishuvi talablariga muvofiq, tovarlar va xizmatlar eksportchilari hamda reeksportchilar uchun daromad solig'i va aylanma solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi. Mazkur o'zgarish eksport faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab tovarlar va xizmatlar eksporti uchun qo'shilgan qiymat solig'ining 0 foizlik stavkasi amaliyoti bekor qilinib, aylanma solig'i to'lovchilari eksportdan olingan daromadlarni aylanma solig'i bazasiga kiritadigan bo'ldi. Bu esa soliq tizimining shaffofligini oshirish va byudjet tushumlarini barqarorlashtirishga yordam beradi.



Biroq eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2021-yil 1-apreldan boshlab mahalliy eksport qiluvchi korxonalarining xorijda savdo uylari ochish va ularni saqlash, ofislarni ijaraga olish, chakana savdo va ombor binolaridan foydalanish, shuningdek reklama kampaniyalari bilan bog'liq xarajatlarining 50 foizi Eksportni rivojlantirish agentligi mablag'lari hisobidan qoplanmoqda. Mazkur mexanizm eksport qiluvchi korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulaylik yaratish maqsadida 2021-yil 1-iyundan boshlab uch yildan ortiq vaqt davomida import faoliyati bilan shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajargan, biroq vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan subyektlarga bojxona to'lovlari bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berildi. Bunda bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliqlar va bojxona to'lovlari summasi so'nggi uch yil davomida to'langan soliqlarning umumiy miqdorining 50 foizidan oshmasligi belgilangan.

Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvargacha IT Park Uzbekistan rezidentlariga ko'rsatilgan eksport IT xizmatlari hajmi yiliga 10 million AQSh dollaridan oshadigan, O'zbekiston bilan ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi bitimga ega davlatlarning norezident kompaniyalari foyda solig'idan ozod qilinadi. Bu imtiyoz yuqori texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan xizmatlar sohasida xorijiy investorlar faolligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda investitsiya va eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan asosiy soliq preferensiyalari va ularning iqtisodiy natijalari

Imtiyoz turi	Amal qilish muddati	Qamrab olinadigan subyektlar	Imtiyoz mazmuni	Kutilayotgan natija
Daromad solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz	2024-yil 1-yanvar – 2027-yil 1-yanvar	Elektrotexnika sanoati korxonalari	Daromad solig'i va mol-mulk solig'i stavkalari 50 foizga kamaytiriladi	Ishlab chiqarish hajmini oshirish, investitsion faollikni kuchaytirish
QQS va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz	2024-yil 1-yanvar – 2027-yil 1-yanvar	Elektrotexnika sanoati korxonalari	QQS va mol-mulk solig'i stavkalari 50 foizga kamaytiriladi	Mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish
Eksportchilar uchun soliq imtiyozlarining bekor qilinishi	2025-yil 1-yanvardan	Tovar va xizmat eksportchilari hamda reeksportchilar	Daromad solig'i va aylanma solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi	Xalqaro savdo qoidalariga moslashuv va shaffoflikni oshirish
Eksport uchun 0 foizlik QQS stavkasining bekor qilinishi	2025-yil 1-yanvardan	Aylanma solig'i to'lovchi eksportyorlar	Eksportdan tushgan daromad aylanma solig'i bazasiga kiritiladi	Soliq tushumlarini barqarorlashtirish
Eksport xarajatlarini qoplash mexanizmi	2021-yil 1-apreldan	Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar	Savdo uylari, ofis, ombor va reklama xarajatlarining 50 foizi qoplanadi	Tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytirish
Bojxona to'lovlari bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati	2021-yil 1-iyundan	Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari	Bojxona to'lovlari qismlarga bo'lib to'lash huquqi beriladi	Import qiluvchilarning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash
Foyda solig'idan ozod qilish	2025-yil 1-fevral – 2030-yil 1-yanvar	IT Park rezidentlariga xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar	Yiliga 10 mln AQSh dollaridan ortiq eksport IT xizmatlari uchun foyda solig'idan ozod qilinadi	Xorijiy investitsiyalar va IT eksportini rag'batlantirish

Manba: World Trade Organization talablari asosida eksportchilarga berilgan ayrim soliq imtiyozlarining bekor qilinishi, IT Park Uzbekistan rezidentlari uchun joriy etilgan soliq preferensiyalari, maxsus iqtisodiy zonalardagi soliq imtiyozlari va eksport xarajatlarini qoplash mexanizmlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun qator maqsadli moliyaviy va soliq rag'batlari joriy etilgan. Xususan, daromadning kamida 90 foizini dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishdan oladigan korxonalar uchun korporativ daromad solig'i stavkasi 0 foiz etib belgilangan. Bundan tashqari, ushbu korxonalar mol-mulk, yer, suv va aksiz soliqlari bo'yicha ham qo'shimcha imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, agrobiznes va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan. Mazkur hududlarda joriy etilgan imtiyozli rejimlar investorlar uchun qulay sharoit



yaratib, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirish maqsadida turli soliq turlari bo'yicha imtiyoz va preferensiyalar qo'llaniladi. Soliq stavkalari va bazasining faoliyat turi, tarmoq xususiyatlari hamda investor maqomiga qarab differensial tarzda belgilanishi investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Quyidagi 2-jadvalda O'zbekistonda amal qilayotgan asosiy soliqlar, ularning soliq bazasi va stavkalari keltirilgan.

2-jadval. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda soliq preferensiyalarining asosiy yo'nalishlari va ularning iqtisodiy natijalari

Soliq preferensiyasi turi	Qo'llaniladigan soha yoki subyekt	Imtiyoz mazmuni	Kutilayotgan iqtisodiy natija
Korporativ daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar	Maxsus iqtisodiy zonalar, eksportyorlar, qishloq xo'jaligi korxonalari	Daromad solig'i stavkalarini kamaytirish yoki vaqtincha ozod qilish	Investitsiyalar hajmini oshirish, yangi korxonalar tashkil etish
Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar	Sanoat va ishlab chiqarish korxonalari	Mol-mulk solig'i stavkasini pasaytirish yoki ozod qilish	Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va yangi uskunalar xaridini rag'batlantirish
Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar	Erkin iqtisodiy zonalar va qishloq xo'jaligi subyektlari	Yer solig'idan ma'lum muddatga ozod qilish	Investitsiya loyihalarining boshlang'ich xarajatlarini kamaytirish
QQS bo'yicha imtiyozlar	Eksportyorlar, elektrotexnika va IT sohasi korxonalari	QQS stavkasini pasaytirish yoki ayrim operatsiyalar uchun 0 foizlik stavkani qo'llash	Mahsulot tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish
Bojxona imtiyozlari	Import uskunalar va texnologiyalarini olib kiruvchi investorlar	Bojxona bojlari va yig'imlaridan ozod qilish	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish
Aylanma solig'i bo'yicha imtiyozlar	Kichik biznes va eksportyor korxonalar	Aylanma solig'i stavkasini pasaytirish	Korxonalarining moliyaviy yukini kamaytirish
IT Park rezidentlari uchun imtiyozlar	IT va raqamli xizmat ko'rsatish korxonalari	Foyda solig'i, QQS va ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va IT xizmatlari eksportini kengaytirish
Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun imtiyozlar	Daromadining 90 foizidan ortig'ini dehqonchilikdan oluvchi korxonalar	Korporativ daromad solig'i stavkasini 0 foiz etib belgilash	Agroinvestitsiyalarni rag'batlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash
Elektrotexnika sanoati uchun imtiyozlar	Elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar	Daromad solig'i, QQS va mol-mulk solig'i stavkalarini 50 foizga kamaytirish	Mahalliy sanoatni rivojlantirish va eksportni oshirish
Eksport xarajatlarini qoplash mexanizmi	Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar	Savdo uylari, reklama, ombor va ofis xarajatlarining 50 foizini qoplash	Tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytirish va eksport hajmini oshirish

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, IT Park Uzbekistan rezidentlari uchun soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun belgilangan preferensiyalar hamda investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliq tizimi investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan differensial yondashuv asosida shakllantirilgan. Korporativ daromad solig'ining umumiy stavkasi 15 foiz etib belgilangan bo'lsa-da, ayrim yuqori rentabelli sohalarda, jumladan sement, polietilen granulari ishlab chiqarish, mobil aloqa xizmatlari, banklar va savdo markazlari uchun 20 foizlik stavka qo'llaniladi. Bu esa davlatning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga nisbatan moslashuvchan soliq siyosatini yuritayotganini ko'rsatadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining 12 foizlik stavkasi nisbatan mo'tadil hisoblanadi va ayrim hollarda 0 foizlik stavkaning qo'llanishi eksport faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar daromad solig'ining rezidentlar uchun 12 foiz, nerezidentlar uchun 20 foiz etib belgilanishi mahalliy mehnat bozorini qo'llab-quvvatlash bilan birga, yuqori malakali xorijiy mutaxassislar uchun 6 foizlik imtiyozli stavka orqali ilg'or tajriba va bilimlarni jalb qilish imkonini yaratadi.



Ijtimoiy soliqning umumiy 12 foizlik stavkasi korxonalar uchun maqbul darajada belgilangan bo'lsa-da, byudjet tashkilotlari uchun 25 foizlik stavkaning mavjudligi davlat sektorining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Mol-mulk solig'ining 2 foizlik stavkasi esa korxonalarining asosiy vositalaridan samarali foydalanishini rag'batlantiradi.

Yer, suv, aksiz va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarning faoliyat turi hamda resurslarning xususiyatlariga qarab belgilanishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekistonda soliq siyosati investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar O'zbekistonda soliq preferensiyalari investitsiya faoliyatini rag'batlantirishning muhim vositalaridan biri ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, tarmoq va hududlar kesimida qo'llanilayotgan differensial soliq imtiyozlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda investorlar uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, soliq preferensiyalarining samaradorligini yanada oshirish uchun ularni aniq maqsadli yo'naltirish, natijadorlik mezonlari asosida baholash va xalqaro standartlarga uyg'un holda takomillashtirib borish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda soliq preferensiyalari muhim iqtisodiy vosita sifatida faol qo'llanilmoqda. Xususan, korporativ daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona to'lovlari va boshqa fiskal yengilliklar investorlar xarajatlarini kamaytirish, investitsiya loyihalarining moliyaviy jozibadorligini oshirish hamda ustuvor tarmoqlarga kapital oqimini kuchaytirishda sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, elektrotexnika sanoati, axborot texnologiyalari, eksport faoliyati, qishloq xo'jaligi va erkin iqtisodiy zonalar doirasida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, soliq preferensiyalarining samaradorligi ularning faqat mavjudligiga emas, balki qay darajada maqsadli, selektiv, shaffof va natijadorlik mezonlari asosida qo'llanilishiga bog'liq. Amaliyotda ayrim imtiyozlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, ayrim hollarda ularning iqtisodiy qaytimi yetarli darajada baholanmayotgani kuzatiladi. Shu bois, soliq preferensiyalarini qo'llashda ularning byudjetga ta'siri, investitsiyalar sifati, texnologik samarasi va uzoq muddatli iqtisodiy natijalari chuqur tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqot yakunlariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, soliq preferensiyalarini berishda umumiy yondashuvdan ko'ra, ustuvor tarmoqlar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar, eksportga yo'naltirilgan korxonalar hamda innovatsion loyihalarga qaratilgan selektiv yondashuvni kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash bo'yicha aniq mezonlar tizimini joriy etish lozim. Bunda investitsiya hajmi, yaratilgan ish o'rinlari soni, eksport hajmi, byudjetga qaytuvchi tushumlar, texnologik yangilanish darajasi va hududiy iqtisodiy samaradorlik kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy zonalar, IT Park va boshqa maxsus rejimlarda berilayotgan soliq preferensiyalarining natijadorligini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bu kelgusida samarasiz imtiyozlarni qisqartirish va natija berayotgan mexanizmlarni kengaytirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, soliq preferensiyalarini ajratish va ulardan foydalanish jarayonlarida shaffoflikni oshirish lozim. Buning uchun raqamli platformalar orqali imtiyozlar ro'yxati, ulardan foydalanuvchi subyektlar va erishilgan iqtisodiy natijalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, hududlar kesimida investitsion salohiyat va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan differensial soliq siyosatini yanada rivojlantirish zarur. Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarda investorlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi preferensiyalar joriy etilishi hududiy mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda soliq preferensiyalari investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Biroq ularning yuqori samaradorligini ta'minlash uchun preferensiyalar tizimini maqsadli, shaffof, natijadorlikka yo'naltirilgan va xalqaro standartlarga mos tarzda takomillashtirish zarur. Ana shundagina soliq siyosati orqali investitsiyalar hajmini oshirish, ularning sifatini yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 30.12.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-599-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-4674011>



2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O'RQ-598-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2025.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. Trends and Impacts of FDI in Uzbekistan // OECD Investment Policy Reviews. – Paris: OECD Publishing, 2025.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. Assessing the Design of Corporate Income Tax Incentives // OECD Investment Policy Reviews. – Paris: OECD Publishing, 2025.
7. PwC. Uzbekistan, Republic of – Corporate – Tax Credits and Incentives. – 2026.
8. PwC. Uzbekistan, Republic of – Corporate – Taxes on Corporate Income. – 2026.
9. PwC. Uzbekistan, Republic of – Corporate – Other Taxes. – 2026.
10. World Trade Organization. Agreement on Subsidies and Countervailing Measures. – Geneva: WTO.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksport faoliyatini rag'batlantirishga oid qarorlari va farmonlari. – Toshkent: LexUZ.
12. IT Park Uzbekistan>. IT Park rezidentlari uchun soliq va bojxona imtiyozlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. – Toshkent, 2025.
13. Invest Uzbekistan. Uzbekistan Investment Guide 2025. – Toshkent: Invest Uzbekistan, 2025.
14. EY Uzbekistan. Anticipated Changes to Tax and Customs Legislation in Uzbekistan. – 2024.
15. Rahmonova S. B. Investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlatning roli // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – № 4. – B. 115–121.
16. PwC. Tax Credits and Incentives in Uzbekistan // Republic of Uzbekistan Corporate Tax Summaries. – 2024.
17. Mamatkulova Nadira Makkamovna Tax Incentives and Their Impact on the Quality of Foreign Investments // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – Vol. 6, No. 4. – P. 1419–1422.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>